

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION” International Conference on Teacher Education

O‘ZBEK TILI IQTISODIY TERMINLARINING TARIXIY-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI (XX – XXI asrlar)

Durdona Muxtorovna Xamidova,
Tadqiqotchi - o‘qituvchi, O‘zDJTU
dhamidova10@gmail.com

Durdona Mukhtorovna Khamidova,
Researcher - teacher, UzSWLU

***Annotatsiya.** Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillari iqtisodiy terminlarning tarixiy-etimologik jihatdan olib borilgan tahlil natijalarini yoritib, soha terminologiyasida terminlarning kelib chiqishi, vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyotini qamrab oladi, xususan, chor Rossiyasi bosib olgandan davrdan mustaqillikka erishilgunga qadar bo‘lgan davr tadqiq etilib, o‘zbek tili lug‘at tarkibida tashqi omillar ta‘sirida yuzbergan o‘zgarishlar o‘rganiladi. Maqoladan ko‘zda tutilgan maqsad o‘rganilgan ikki asrni nazarda tutgan holda maxsus lug‘at tizimida etimologik tadqiqotni amalga oshirishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:** termin, terminologiya, iqtisodiy terminlar, etimologiya, olinma terminlar, terminlashuv jarayoni.*

***Abstract.** This article discusses the the results of historical-etymological analysis of English and Uzbek economic terms and studies the origin and historical development of economic terms. The purpose of the article is to investigate the ways through which they were borrowed or derived from. It set the aim of carrying a research out in a special vocabulary system referring to the last two centuries.*

***Key words:** term, terminology, economic terms, etymology, derivation, derived terms, terminisation.*

Tarixiy manbalarni o‘rganar ekanmiz, davlat va jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning, savdo-sotiq aloqalarining ming yillar avval paydo bo‘lib, asrlar davomida har bir davrga xos tarzda rivojlanish bosqichlaridan o‘tib, takomillashib kelayotganining guvohi bo‘ldik.

O‘zbek tili iqtisodiy terminologiyasi tarixiy-etimologik rivojlanishini davrlashtirib o‘rganadigan bo‘lsak, muhim bir o‘ziga xos bosqichi revolyutsiyadan keyin yurtimiz mustaqilligigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda ham terminologiya masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu borada ma‘lum bir dastur ishlab chiqilmagan edi. Avvalgi davrlarda shakllanib kelgan o‘zbek iqtisodiy terminologiyasi o‘rta asr musulmon uduTmlarini saqlab qolgan islom dini bilan to‘la ravishdabog‘liq bo‘lib, o‘sha davrning o‘ziga xos ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettirar edi.

Chor Rossiyasi O‘rta Osiyoni bosib olishi va o‘lkada “tarqqiyot”ni joriy etishi barobarida iqtisodiy sohada pul-tovar muomalasiga sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasiga oid terminlar singdirila boshlandi. Masalan, o‘sha davrda yaratilgan

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

lug’atlarda savdo-sotiq kasbiy mehnat sohalariga oid terminlarni qayd etishimiz mumkin: *акция – акция, процент – процент, фюз, банк – банк, пулхона, кредит – насия, кредит, оборотный капитал – дасмоя, айланма капитал*[Smolenskiy, 1912].

Bu davrda juda ko’p ruscha terminlar so’zlashuv tili ta’siri ostida o’zbek tili leksik qatlamiga singa boshladi, masalan: *ishtrap – штраф, pudratchi – подрядчик, kantura – контора, zovut – завод, бухгалтер – bug’altir*

O’z-o’zidan bu davr tilshunoslari tomonidan tilda “xususiy” terminlar yaratish mayli paydo bo’la boshladi va o’sha davr vaqtli matbuotida va lug’atlarda shunday terminlarni ko’rishimiz mumkin [G’ozi, 1929]: *революция – o’zgarish, пролетариат – yo’qsil, биржа – savdo o’rni, акция – ulum hujjati, аванс – bo’nak* va b. Bu davr haqida terminshunos olim O. Ahmedov “ bu hodisa tabiiy shaklda yuzaga kelgan bo’lsa-da, aksariyat kishilar o’zlari bilganicha “termin” topib, “termin yasay” boshladi” deb izohlaydi o’z tadqiqotlarida.

Ushbu davrning o’ziga xosliklaridan yana biri shundaki, jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan turk, tatar va chig’atoy leksemalarini qamramrab olgan, hamma uchun yagona bo’lgan “umumturkiy” tilni yaratishga harakat qilganlar. Lekin ularning harakati umumturkiy jargon yaratish harakati degan nuqtai nazardan ta’qib ostiga olingan bo’lsa-da ba’zi terminlar bu harakat ta’sirida yuzaga kelgan: *аграрная революция – ziraat (yer-tupraq) inqilabi, аграрная реформа – jer islahati, денежное отношение – pul rozqari, ақса munasabati, заработная плата – is haqi, mihnat haqi, прибыль – hajan (hayan), fojda (foyda); производство – istahsalat, ishlabchiqariş, бедняк – j’oqsil (yo’qsil, kambag’al), кризис – buhran, таможенная пошлина – gumruk tārifi, средство обмена – tuamatlat asbablar, ajribaş vasitalari* [Marks, Engels,62]. Keyinroq ularning ko’pchiligi iste’moldan chiqdi.

Bu davr terminologiyasida rus tilining o’rni katta bo’lgani va u rus-baynalmilal hamda xalqaro terminologiyaning joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Bu ishlar o’zbek tilida azaldan mavjud bo’lgan terminlar ruscha baynalmilal variantlari bilan almashtirish va tilda mavjud bo’lmagan tushunchalarni kalkalash yoki tarjimasiz to’g’ridan to’g’ri olib kirish bilan amalga oshirilgan. Ular quyidagi tamoyillar asosida hosil qilingan:

1. Xalqaro terminlarning o’zbekcha ekvivalenti mavjud bo’lmasa, yoki ba’zan ekvivalenti bo’lsa ham, termin original holatda, o’zgarishsiz qabul qilingan, masalan: *brigada, budjet (бюджет), import, industriya, kapital, kontrakt, kooperatsiya,*

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION” International Conference on Teacher Education

kredit, lendlord, magnat, manifaktura, monopoliya, patent, poshlina, protsent, renta, subsidiya, fabrikant, shtraf, eksport va boshqalar.

2. Rus-baynalmilal terminning mazmun-mohiyatini to'liq ifodalay oluvchi tilda mavjud lugaviy birliklardan foydalanilgan, masalan, *имущий – mulkdor, стоимость – qiymat, труд – mehnat, плательщик – to'lovchi.*

3. O'zbek tili ichki imkoniyatlari asosida yangi terminlar hosil qilingan. Bunda o'zlaashgan termin o'zaklarga qo'shimcha qo'shib termin yasash usulidan unumli foydalanilgan: *банкир – bankchi, банкротство – bankrotlik, интенсификация – intensivlash, кассир – kassachi.*

4. Ruscha terminlarni o'zbek tiliga ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarni qo'shib tarjima qilish orqali yangi terminlar yasalgan. Bu usul nisbatan kam sonly terminlarda muvaffaqiyatli chiqqan: *производство – ishlabchiqarish (hozirgi ishlab chiqarish); самоуправление – o'z boshqarish/ o'zi boshqarish (hozirgi – o'z-o'zini boshqarish); самоцель – aynimaqsad (ayni maqsad so'z birikmasidan), акционерное общество – aksiyali shirkat (keyinroq, aksionerlik jamiyati), прибавочная стоимость – qo'shimcha qiymat.*

5. Rus tilidagi ba'zi yarim qisqartirish bilan berilgan murakkab terminlar to'liq tarjima qilingan: *госплан – davlat plani, продналог – g'alla solig'i.*

6. O'zbek tilida ekvivalent bo'lsa ham, rus tilining keng istemolga yoyilishi natijasida ruscha-baynalmilal terminlar ham o'zlashib, bir paytda bir tushuncha bir necha termin orqali ifodalana boshladi: *конкуренция – konkurensiya, раqobat, купец – koras, savdogar, страхование – straxovaniya, sug'urta, аукцион – auksion, kimoshdi, экономика – ekonomika, iqtisod.* Natijada o'zbek tilida ko'plab arab va fors-tojik tiliga oid terminlar ruscha baynalmilal yoki inglizcha xalqaro terminlar bilan birdek qo'llana boshladi, masalan: *взнос – vzos – badal (arab); индустрия – industriya (rus-bayn.)//sanoat (arab); капитал – kapital (rus-bayn.) / mablag'(arab); коммерция – komersiya / tijorat (arab); конкуренция – konkurensiya / raqobat (arab); контракт – kontrakt (rus-bayn.) / bitim (o'zb), shartnoma (fors); кредит – kredit (rus-bayn.) / qarz(arab); прибыль – pribil – daromad (tojik);* Lekin, sobiq sovet siyosati ta'sirida o'zbek tilidagi ekvivalentlarning aksariyati sun'iy tarzda iste'moldan chiqarilgan va o'zbek tili lingvistik xususiyatlari e'tiborga olinmagan holda ko'plab rus-baynalmilal terminlari “o'zbekchalashtirilgan”.

Rus tili orqali o'zbek tiliga, yevropa va sharq tillariga oid terminlar o'zlashtirilgan.

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

Assignatsiya (Polyak tilidan o'zlashgan. *(as)gnacija* – Rossiyada 1769 – 1849 - yillar oralig'ida davrda muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarning tarixiy nomi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi va oltin va boshqa metallarni pul sifatida muomaladan chiqarishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi munosabatini ifodalovchi **ассигнация** nomi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Lombard – (*ломбард* – *biror mulkni garovga qo'yish evaziga qarz beruvchi tashkilot*) termini rus tiliga XIX asrda fransuz tilidan kirgan [Semyonova, 2003]. Rus tilida *ссудная касса, тьюрма* sinonimlari mavjud bo'lgan. **Balans** (*баланс* – *hisob-kitob qilinadigan kirim-chiqimlar muvozanati*) termini ham fransuz tilidan o'zlashgan.

Aktiv – (*assets mol-mulk, mablag'*) termini rus tiliga lotin (*actives* – faol) tilidan o'zlashgan.

Boycot (*boycott* – iqtisodiy kurash metodi) birinchi marta 1880-yilda o'ta qattiqqo'l ish boshqaruvchi Ch.K. Boycotga qarshi bosh ko'targan Irland ijarachilari tomonidan qo'llangan va uning nomi bilan atalgan iqtisodiy yoki siyosiy qarshilik usuli. Irland dehqonlari pishib yetilgan kartoshka hosilini yig'ib olishdan bosh tortishadi. Yomon ob-havo va inglizlarning bu ishda uquvsizligi sabab Angliya irland halqiga yon berishga majbur bo'ladi. Natijada bosh vazir Gladston parlamentga mahalliy qoidalar taklifini kiritish imkoniga ega boldi. Bugungi kunda ham jangsiz olib boriladigan bu norozilik metodi ayrim shaxs, kompaniya yoki davlatga qarshi amalga oshiriladi.

Aksiya – (*акция*) termini lotin tilidan (*actio* – *hujjat*) nemis tiliga, undan (*actie* – *qimmatli qog'oz, hujjat*) rus tiliga o'zlashgan. Pyotr I davrida hujjat ma'nosida keyinroq qimmatli qog'oz ma'nosida qo'llangan. O'zbek tiliga ham *акция* shaklida qabul qilingan, XX asr oxirlaridan *qimmatli qog'oz* termini ham variantdosh sifatida yuritila boshladi.

Birja termini ham nemis tilidan (*bürse* – *hamyon*) o'zlashgan. Birinchi marta 1810-yillarda Moskva savdogarlari tomonidan savdo kelishuvlarida qo'llangan. Nemischa *burse* – *hamyon* so'zi ingliz tiliga *purse* shaklida o'zlashgan.

Valyuta (*muayyan davlat pul birligi*) lotin tilidan (*valeo- turaman*) nemis va italyan tillariga o'zlashgan bu termin 1829-yilda rus tiliga italyan tilidan (*valuta* – baho, narx) o'tganligi aytiladi [35].

Veksel (*вексель*) nemischa *wechsel* so'zidan 1698-yilda *вексель* shaklida rus tiliga kirib kelgan, keyinroq orfografik jihatda o'zgargan.

Rus tili orqali o'zlashgan **magazin** (*har xil molar bilan savdo qiluvchi do'kon*) so'zi asli arabcha so'z bo'lib, rus tiliga harf o'zgarishlari bilan o'rta asrlardagi

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

maxa:zinu – *مَحَازِنُ* *ال* so'zidan o'zlashgan, masdari “to'pladi”, “saqladi” ma'nosini beruvchi *حَزَنَ* fe'li. [et.II, 219]. Sho'rolar davrida bu termin ham o'zbek tiliga kirib kelgan.

Tariff – termini ham dastlab arab tilidan yevropa tillariga, ba'zi manbalarga ko'ra fransuz tiliga, so'ngra rus tiliga o'zlashgan. XX asrning oxirgi choragida o'zbektiliga kirib keldi. “bildi” fe'li masdaridan olingan bu so'z iqtisodiyotda”oldi-sotdida belgilanadigan haq, baholar ko'rsatkichi” istilohida qo'llanadi [O'TILga qarang]

Istiqlol davriga kelib o'zbek tili iqtisodiy terminologiyasida, umuman, o'zbek adabiy tili va tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlariga keng yo'l ochildi. Yurtimiz mustaqillikka erishishidan bir necha yil avval, 1989-yilda o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi, bu esa o'z navbatida, sohada unutilib ketgan yoki totalitar tuzum davrida iste'moldan chiqarib tashlangan turkiy tilga oid *raqobat*, *mulkdor*, *sarmoya*, *tadbirkor* kabi atamalarning yana muomalaga qaytishiga zamin yaratdi.

Lekin, ayni damda, o'zbek tilidagi rus-baynalmilal leksik qatlamga qarshi dastavval zimdan, yurtimiz mustaqilligi e'lon qilingach esa oshkora kurash boshlandi. ko'plab so'zlar shoshma-shosharlik bilan “o'zbekchalashtirila” boshlandi va bu iqtisodiyot sohasini ham chetlab o'tmadi, natijada, asr boshida bo'lganidek soxta terminlar paydo bo'la boshladi:*garovxon* (*lombard*)[Toshturg'unov,2000; 30], *puadrat tanlovi* (*tender*)

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatiga qo'shilib, turli sohalarda, jumladan iqtisodiy sohada ham diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ya boshladi. Birinchi president I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan rejali barqaror bozor munosabatlari va xalq farovonligini o'rnatishni maqsad qilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishning besh tamoyili aynan mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarga yo'l ochib berdi. Endilikda avvalgi davrlardagi rus tilining o'rnini ingliz tili egallay boshladi va inglizcha terminlar bilvosita emas, bevosita tilimizga kirib kela boshladi. Fransuz tadbirkori J.P.Nerry va boshqa ko'plab bu tilda o'z bizneslarini yurituvchi ishbilarmonlar ta'kidlaganidek, “ingliz tili uchinchi mingyillikning butunjahon dialekti”[Nerry, 2020]ga aylanib ulgurgan.

Fanda yangi tushunchalarning vujudga kelishi har doim yangi ilmiy atamalaatning yaratilishi bilan ta'minlanadi. “O'zgalar tushunchasini ifodalash uchun o'z terminini yaratish juda mushkuldir. Shuning uchun chetdan qabul qilib olingan tushuncha mazkur tushunchani ifodalovchi termin bilan birga o'zlashtiriladi”[Belinskiy, 1955]. Terminlarni diaxron tadqiq qilgan Ch. Abdullayeva bu holatni yangi tushuncha yaratilgan tilga nisbatan “mukofot “deb baholaydi.

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

Bu davrda termin a) bevosita o'zga tillardan o'zgarishsiz kirib kelishi (devalvatsiya, veksel, import, capital); b) to'liq kalakalsh orqali kirib kelishi (exchange value – almashuv qiymati, essential labour – zarur mehnat); d) yarim kalkalash yo'li bilan hosil qilinishi (monetary reform – pul reformasi, basis capital – asosiy capital)ni kuzatishimiz mumkin.

XX asrda o'zlashma qatlamning asosiy qismini rus tiliga oid birliklar egallagan bo'lsa, XXI asrga kelib rus tili o'z “vositachi”lik rolini yo'qotdi va endilikda yangi so'zlar o'zlari ifodalagan yangi tushunchalar bilan bevosita kirib kela boshladi.

Sobiq ittifoq davrida istemoldan chiqib qolgan ko'plab o'zbekcha, arab va fors tilidan o'zlashgan terminlar mustaqillik yillari qayta tiklandi. Natijada ularning ko'pchiligi variantdosh bo'lib, baravar qo'llanishga o'tdi. (1.4-jadvalga qarang)

1-jadval

Parallel qo'llanishdagi variantdosh terminlar

rus-interterminlar	qayta tiklangan terminlar
arenda	ijara
aksiya	hissa(arab), ulush(o'zb)
balans	muvozanat
buxgalter	hisobchi
deposit	omonat
defitsit	kamyob
effect	samara
shtraf	jarima
kredit	qarz
krizis	tanazzul, inqiroz
kommersiya	tijorat
kontrakt	bitim (o'zb), shartnoma (fors)
kriteriya	mezon
kompensatsiya	tovon
makler	dallol, vositachi
menejment	boshqaruv
menejer	(ish) boshqaruvchi
monitoring	nazorat
optom	ulgurji
premiya	mukofot
pay	hissa
resurs	zahira
rentable	manfaatdor, foyda oluvchi
oborot	aylanma

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

nalog	soliq
sponsor	homiyl
ssuda	qarz
standard	andoza
straxovka	sug'urta
servis	xizmat
skidka	chegirma

Shuningdek, ko'plab terminlar ayni davrda tilimizda qo'llanilmay, arxaizmga aylanib qoldi: daftardor(xon oilasi xarajatlariga mas'ul amaldor), dafina (yerga ko'milgan boylik), istefoda, mutavalli(soliq yig'imiga mas'ul amaldor), musarrif/sarrof(pul maydalovchi), masrif(sarf-xarajat).

1. O'z qatlam. *boy bitim, chegirm, ishchi, ishbay, kirim, kimoshdi, kunbay, olibsotar, yo'qsil, chiqim, soliq, sotiq, sotuv, sotuvchi tejam, tekin, tushum, tiyin, tovar, ulgurji, ustama,*

Ko'p hollarda o'zlashgan qatlamga tegishli so'zlardan foydalanib yangi terminlar hosil qilingan: *kunbay, moliyaci, sanoatchi, raqobatbardosh, xo'jalik, ijarachi, iqtisodchi, vositachi va boshqalar.* Hozirgi kunda ham bu metod o'z samaradorligini saqlab kelmoqda

2. O'zlashgan qatlam. O'zbek tiliga iqtisodiy soha terminlari bevosita(to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (rus tili orqali) asosan arab, fors, lotin, ingliz, nemis, fransiz va boshqa tillardan kirib kelgan. T.Ergashevning uch tilli lug'atida berilgan 250ta o'zgarishsiz o'zlashgan iqtisodiy terminlarning O'zbek tilining etimologik lug'ati [3jildli Raxmatullayev], rus tilining etimologik lug'ati [<https://rus-etmo-semenov-dict.slovaronline.com/>] va boshqa sohaviy maxsus lug'atlar asosida etimologiyasi o'rganib chiqilganda, o'zbek tiliga o'zlashgan sof terminlar kelib chiqishiga ko'ra quyidagicha taqsimotni ko'rishimiz mumkin:

2.1. arab tillidan: *baho, bay, boj, baqqol, do'kon, ehtiyoj, foiz, foyda, g'anima, g'azna, hadya, haq, hisob-kitob, homiy, hissa, jarima, zahira, ijara, imtiyoz, inqiroz, isrof, iste'mol, istefoda, iqtisod, iqtisodiy, iqtisodiyot, kasb, kasod, kafil, kafolat, kira, mablag', magazin, manfaat, maosh, meros, moliya, mukofot, mulk, musodara, nafaqa, naqd, omonat, raqobat, sarf, qalbaki, qarz, qahat, qimmat, qiymat, qurb, sug'urta, sherik, shirkat, talab, tariff, tanazzul, ta'minot, tashkilot, taklif, ta'sischi, tijorat, taqsimot, vakil. vakolat, vasiy, xazina, xayriya, xarajat, xarj, xususiy, xususiy mulk; zarar, zaxira, zakot;*

2.2. fors-tojik tilidan: *arzon, badavlat, bojxona, bozor, bozorgir, buromad, ganj, garov, gumashta, daromad, dastmoya, donabay, do'kondor, kamyob, kamomad,*

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

kambag'al, kasb-kor, manfaatdor, mulkdor, narx, savdo, savdogar, sarmoya, sarmoyador, serdaromad, tadbirkor, tannarx, xarid, xaridor, xomashyo, xomcho't, xo'jalik, chakana savdo, qalbaki, qarzdor, hissador;

2.3. fransuz tilidan: *avans, aksiz, arbitraj, assortiment, baza, balans, bank, bonlar, byurokratiya, debit, defitsit, deponent, industriya, inflatsiya, komissioner, kommersant, kommersiya, kompanyon, kompensatsiya, kotirovka, kupon, lombard, nominal, reklama, renta, etiketka, emitent;*

2.4. ingliz tilidan: *barter, biznes, boykot, broker, bonus, budjet, voucher, garant, devalvatsiya, demonopolizatsiya, demping, diler, diskont, distribyuter, eksport, indeks, injiniring, kliring, konvertatsiya, konsalting, kontokorrent, konsern, kooperativ, lizing, marketing, menejer, monitoring, patent, realizatsiya, sponsor, charter, chek, charter, chek, effect;*

2.5. ispan: *embargo.*

2.6. italyan tilidan: *avizo, Brutto, saldo, valyuta;*

2.7. rus tili orqali lotin tilidan: *akreditiv, aktiv, aksept, amortizatsiya, audit, auksion, assosatsiya, deflyatsiya, deposit, diversifikatsiya, dividend, dotatsiya, import, incasso, kvota, komitent, konvensiya, konvergensiya, konversiya, konlomerat, konsignat, konsorsium, kontragent, korporatsiya, kredit, kurs, limit, litsenziya, klient, normative, obligatsiya, oferta, passiv, sector, sindikat, stagnatsiya, tendensiya; (37)*

2.8. nemis tilidan: *agent, birja, veksell, gonorar, deklaratsiya, investitsiya, kassir, krizis, kombinat, makler, marka, pakt, paritet, preyskurant, ratsionalizatsiya, rentabellik, investitsiya, subsidiya, firma, protsent;*

2.9. rus-slavyan tillaridan: *assignatsiya, kompaniya pay, penya, pudrat, pudratchi, smeta, ssuda, schyot-faktura, subschyot, fiskal, zayom;*

2.10. yunon tilidan: *demografiya, ipoteka, monopoliya, oligarxiya, oligopoliya, pul;*

Mazkur o'zlashmalarda yevropa tillari uchun lotin tili ko'p hollarda asosiy manba vazifasini o'taydi. Rus tili orqali kirgan terminlarning asosiy qismini ham kelib chiqishi lotin tiliga tegishli bo'lgan terminlar tashkil qiladi, shuningdek, mustaqillik davrigacha yevropa tillaridan o'zlashgan terminlar bilvosita rus tili orqali o'zlashgan. So'nggi yillarda tilimizga neologizmlar va xalqaro terminlar bevosita kirib kela boshladi. Masalan, *akkaunt, charter, detensiya, diskaunt, ditribyutor, franchayzing, fyuchers, fors-major, keshbek, kliring, lizing, megapolis, nou-hau, ofshor, oferta, oligarxiya, oligopoliya, sale, stagnatsiya, texnopolis, treyding, vaucher, xayring.* Bu holat, doimgidek, sun'iy tarzda variantlilikni yuzaga chiqaradi: akkaunt – hisob, diskaunt – chegirma, sale – chegirma, treyding – savdo boshqaruvi,

“RESEARCH-BASED TRANSFORMATION OF TEACHER EDUCATION: TRADITION AS A BASIS FOR INNOVATION”

International Conference on Teacher Education

voucher – kupon, xayring – yollanib ishlash va boshqalar. Shuningdek, avvalgi bo'limda to'xtalib o'tganimiz iqtisodiyotning yangi tarmog'i hisoblanuvchi raqamli iqtisodiyot orqali keng ko'lamda yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi termin neologizmlar tilimizga kirib keldi: *kiberbank, kiberto'lov, bruto qarz, frank bozori*. Ba'zan ularda variantlilik yuzaga keldi: *kriptovalyuta – electron valyuta, kiberto'lov – electron to'lov*. O'zbek tilining naqadar boy til ekanligi barchamizga ma'lum. Juda ko'plab so'zlar tarixiy va arxaik so'zlarga aylanib ketgan. Albatta, zamon o'tmoqda, sezishga ham ulgurmas darajadagi rivojlanish bo'lmoqda. Bugunga kelib, vazifasi ham, nomi ham yo'qolib ketayotgan yoki boshqa nom bilan atalayotgan istilohlarni tarixiy qo'lyozmalarda, bitiklarda va albatta, tarixiy asarlar matnida uchratish mumkin. Ular yo'qolib ketishining oldini olish, tadqiq etish va o'rganish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Chunki borliqdagi, koinot-u zamindagi hech bir zarra, biror tomchi o'z-o'zidan, birdaniga yo'qlikdan paydo bo'lib qolmaydi. Albatta, ularning paydo bo'lish omillarini keltirib chiqaruvchi jarayonlar, shu jarayonlarni ifodalovchi so'zlar vujudga keladi. “Lug'at tarkibining doimiy ravishda boyib borishi ijtimoiy hodisa sifatida til taraqqiyotining eng asosiy qonuniyatlaridan hisoblanadi”[Koduxov, 1987; 188-189]. Lug'atboyligining ortib borishi har bir dabrda o'ziga xos tarzda amalga oshadi. “Yangi so'z ixtiro qilinmaydi, balki tilda mavjud bo'lgan so'z yasovchi elementlar, ya'ni muayyan tilning o'z ichki imkoniyatlari hisobiga vujudga keladi. O'ylab topilgan so'zlar turli tillarda juda ham kam sonni tashkil etadi”[Potixa, 1970; 147]. Shuning uchun ham bu jarayonning kelib chiqish sababi va oqibatlarini uning tarixini o'rganish, yoritish tilshunoslikning dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi.

References:

1. Н.Смоленский. Польный карманнй русско-сартовский словарь Т. 1912.
2. Семенова. Этимологический словарь русского языка. М.: Русский язык от А до Я. Издательство <ЮНБЕС>. Москва. 2003. <https://rus-etmo-semenov-dict.slovaronline.com/>
3. G'ozi Olim (Yunus). Ruscha-o'zbekcha siyosiy-yuridik lug'at, “Pravo”, 1926.
4. Словарь русского языка XVIII века 2010-2024 <https://slovar-russkogo-yazyka-xviii-v.slovaronline.com/>
5. Е.Тостург'унов. иqtisodiy atamalarning o'zb – ing – rus lug'ati В – 30.
6. В. Г. Белинский. Полное собрание сочинении. IX, М., 1955.
7. Кодухов В.И. Введение языкознание. – М.: Просвещение, 1987. – С. 188-189.
8. Потиха З.А. Современное русское словообразование. – М.: Просвещение, 1970. – С. 147.